

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA –
IKKINCHI RENESSANS POYDEVORI**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
TO'PLAMI**

СБОРНИК

международной научно-практической конференции

**“АМИР ТЕМУР И ЭПОХА ТЕМУРИДОВ –
ОСНОВА ВТОРОГО РЕНЕССАНСА”**

COLLECTION

of the international scientific-practical conference on the topic of

**“ERA OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS –
FOUNDATION OF THE SECOND
RENAISSANCE”**

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UO‘K: 950(575.1)

KBK: 63.3(50‘z)

A 48

Amir Temur va Temuriylar davrida – ikkinchi renessans poydevori [Matn]: xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 352 b.

Tahrir hay’ati a’zolari:

Ametov T.A. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Nazarov N. – falsafa fanlari nomzodi, professor

Abduraxmonova J. N. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yakubov F.M. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Nasirov O.N. - tarix fanlari nomzodi, dotsent

Begaliyev J.R. - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tanriyev A.J. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Xoliqov B.Q. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Djumanov B. M. – dotsent

Davletyarova L.B. – dotsent

Ismailov U.Q. – o‘qituvchi

Mas’ul muharirlar:

Nazarov N. – falsafa fanlari doktori, professor

Ibraximov S.U. – pedagogika fanlari doktori, dotsent

Mirzaqulov I.M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Kayumov A.R. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Komilov O.K. - tarix fanlari doktori, professor

Tadjibaev S.S. - pedagogika fanlari doktori, professor

Alimov M.S. - pedagogika fanlari doktori, professor

Mazkur konferentsiya maqolalar to‘plami Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Kengashining 2024-yil 1-aprel kungi 8-son bayyonnomasasi bilan nashga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-789-97-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

Sagdullayeva M., Islamova Q.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O‘zbekiston, Chirchiq shahri

**RUI GONSALES DE KLAVIXIONING SAMARQANDGA
SAYOHAT KUNDALIGINING AHAMIYATI VA MUHIM
TASVIRLARI**

Har bir taraqqiy etib borayotgan davlat borki u albatta tashqi aloqalarga katta e’tibor beradi. Bu aloqalar siyosiy, iqtisodiy jihatni ham qamrab oladi. Taraqqiy etib borayotgan mamlakatlarga qiziqish kundan-kun ortib ular bilan aloqa o‘rnatishni istagan davlatlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. XIV-asr oxiri XV-asr boshlarida nafaqat Osiyoda balki butun jahon siyosiy maydonda Amir Temur va uning davlati eng kuchlilar qatorida tilga olingan. Mana shunday davlating tuzilishi, aholisi, geografiyasi va boshqaruv shaklini o‘rganish uchun boshqa davlatlarda ko‘pgina elchilar va sayohatchilar tashrif buyuradi.

Amir Temur diplomatiyaga alohida e’tibor beradi. “Temur tuzuklari” da yozganidek. “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulishini mashvirat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur” [1:2]. Ushbu fikrdan ham anglashiladiki, Amir Temur ham ichki ham tashqi siyosatda har doim birinchi kelishuvchanlik va taklif-mulohazani taklif etgan. Lekin ayrim siyosiy tomondan kelishish mumkin bo‘lmagan raqiblarga nisbatan kuch ishlatalish yo‘lini tanlangan. Balki shu boisdan bo‘lsa kerak ko‘plab davlat rahbarlari do‘slik va hamkorlik qo‘lini cho‘zganliklarida doimo qabul qilgan.

Xususan, Fransiya, Angliya, Ispaniya kabi davlatlar sharqqa qiziqib, bir qancha elchilar yuborganligi ma’lum. Sohibqiron o‘z davrida Fransiya qiroli Karl VI, Angiliya qiroli Genrix IV hamda Kastilya va Leon qiroli Genrix III de Trastamaralar bilan aloqa o‘rnatib yozishmalar olib bordi.[2:145]. Bu davrda Yevropa davlatlari siyosiy tarqoqlikni boshdan kechirishayotgan edi. Qudratli Amir Temur davlati bilan diplomatik va savdo aloqalarni o‘rnatish istagida elchilar yuborib turganlar. Yana bir sabablardan biri Usmoniyalar hukmdori Boyazid Yildirimning Yevropaga qilayotgan tahdid va hujumlarining oldini oladigan yagona shaxs sifatida ko‘rishgan. Shunga ko‘ra, Yevropaning

bir qancha monarxlari bu jang oldidan o‘z yordamlarini taklif eta boshladilar. Jangda g‘olib chiqqan Amir Temurning g‘alabasi bilan qutlash niyatida turli o‘lkalardan elchilar kela boshlaydi.

Ispaniya qiroli tomonidan Amir Temurning saroyiga Gonsalis de Klavixio boshchiligidagi elchilar guruhi yuboriladi. Klavixioning ajdodlari ham azaldan ispan qirollariga xizmat qilib kelgan va saroyda obro‘li amallarda ishlab kelgan edilar. Ham shaxs sifatida gapga chechan va notiq bo‘lib tanilganligi uchun ham aynan elchilar guruhiga boshliq etib tayinlangan edi. Klavikoning sayohat kundaligi shuning uchun ham juda qadrlici, o‘zi Amir Temurni shaxsan ko‘rib saroydagi urf-odatlar, insonlar, tartib va qonun qoidalarini o‘zi guvoh bo‘lgan bir necha voqealarni yoritadiganligi bilan bevosita muloqotda bo‘lgan. Klavixio o‘sha davrdagi muhim shaxslarning ko‘rinishi lavozimlari va o‘zi bilganicha xarakterlarini tasvirlab yozadi. Aynan o‘zi muloqotda bo‘lgan insonlarning tasviri ularning tashqi ko‘rinishlari haqida ham ma'lumotlar berib o‘tadi.

Klavixo o‘zi kundalik sifatida yozadi. Asarni kundalik sifatida yozishdan muhim jihatlardan biri bu sanalarning qayd etib borilishidir. Ya’ni Klavixo asarning muqaddimasidan boshlab o‘zi yo‘lga chiqqan Ispaniyadan qanday yo‘llar qaysi shaharlar davlatlar orqali kelgan bo‘lsa barchasini tasvirlab Samarqandgacha bo‘lgan yo‘llarni kundaligiga qayd etib sanalar bilan yozib qo‘yadi. To‘g‘ri biz Klavixionning bu asarni hech bir mubolag‘asiz va tanqidiy nazarsiz qabul qila olmaymiz. Chunki unda uchraydigan ba’zi shaxs va joy nomlari atamalarining hali ochilmagan yaxshi o‘rganilmagan jihatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu esa bizda yanayam savollarni tug‘diradi va tadqiqotlarimizning yanada chuqurlashtirishni talab etadi.

Asarda uchraydigan mummolardan biri Klavixio o‘z talaffuzidan va tushungani bo‘yicha yozgan shaxs va joy nomlari noaniqligidir. “Kundalik”da til;ga olingan Amirat-Murod ekanligi, Hokarok-Shoxrux Mirzo, Karil Sultan-Xalil Sulton, Kirmonali-Manuel Paleolog, Karamish-To‘xtamish, Miazza mirassa-Mironshox Mirzo ekanligi; Anguri-anqara, Baldat-Bag‘dod, baubertel-Bovard, Kanbalik-Xonbaliq, Karras-Araks, Orasan-Xuroson ekanligini anglash mumkin[3:19]. Bular

hozirda aniq va isbotlangan shaxs va joy nomlari bo‘lib, manba sifatida juda katta ma’lumot beradi. Yuqorida aniqlangalar asosan, talaffuz jihatidan yaqin ekanligi, tarixiy shart-sharoitda yashab o‘tgan shaxslar va geografik obyektlarni solishtirish orqali aniqlangan. Lekin asarda hali aniq javobini topmagan shaxs va joy nomlari ham mavjud. Bularga Buamo, Jagaro kabilar kiradi. Kundalikdan joy olgan bu kabi so‘zlarni aniqlashtirishda, tadqiqodchilardan katta izlanishlar olib borilishini talab etadi.

Klavixio asarda milodiy 1403-yil 21-may dushanba kuni elchilar Seviliya va Xerosdan savdo kemasida safarga chiqqanliklarini qayd etib boshlaydi. Safar davomida yo‘lda uchragan, tushib sayohat qilgan orollarni, shaharlarni tasvirlab yozadi. Malaga, Balear, Ivisa, Gaeta, Lipari orollari, Rodos oroli, Berro oroli va boshqa ko‘plab joy manzaralarini tasvirlaydi. Ayniqsa, Avliyo Sofiya ibodatxonasi bayoni juda chiroyli yozilgan. Klavixio ibodatxonani tasvirlar ekan, “Ibodatxona oldidagi maydonda to‘qqizta behad darajada ulkan va yo‘g‘on oq marmar ustunlar bo‘lib, ularning tepasida ko‘tarma supalar bor. Aytishlaricha, ilgarigi ustunlar tepasida katta maskan qurilgan, (unda) patiarx va ruhoniylar yig‘ilishib, kengash o‘tkazganlar[4:54]. Yozuvlardan Klavixio ibodatxonaning mahobati va go‘zalligidan hayratga tushganligini anglash mumkin. Chunki, asarda hajm jihatidan ancha joy ajratilgan bo‘lib, Avliyo Sofiyani batafsil tasvirlab, uni ahamiyatini va obro‘sini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Klavixio hayratga tushib tasvirlagan Keshdagি Oqsaroy binosi hatto Parijda ham bu inshaoot, undagi naqshlarda hayratga tushishlarini qayd etadi. Hovli haqida yozar ekan quyidagicha yozadi: “Hovli sahniga oppoq tosh taxtalar to‘shalgan. Hovlining o‘rtasida katta hovuz jilolanib turibdi. Hovli sahnining kengligi uch yuz qadamcha keladi”. [5:147]. E’tibor bilan kuzatgan Klavixio eshik va devorlarda chizilgan sher tasvirlari, Amir Temurning davlat tamg‘asini ta’riflab o‘tadi. Yana Klavixio bu yozganlari binoning go‘zalligini to‘la ochib bera olmaganligini yozar ekan, har bir xonani, unga tutashgan bog‘larni shoshmasdan ko‘zdan kechirish lozimligini qayd etadi.

Klavixio Anqara janggini yozar ekan, anchayin shavqatsizlik va daxshatli voqealar bilan jonlantiradi. Balki o‘zi guvoh bo‘lmasdan balki turli insonlardan eshitganlariga qarab xulosa qilgan ko‘rinadi. Jangning boshlanish sabablaridan boshlab yakunigacha batafsil yozib qayd etgan. Jang oqibatida Temur g‘arbiy Anatoliya bo‘ylab Egey dengizi sohillariga yurish qiladi, nasroniy otliq gospitalining tayanchi-Izmir shahrini qamal qilib, egallab oladi[6]. Bu esa butun musulmon olami uchun katta g‘alabadir. Klavixio jangni, uning oqibatlarini yozishga urinib, Boyazidning asirga olinish jarayoniga ham to‘xtalib o‘tadi.

Eng asosiy qaydlar esa shubhasiz Amir Temur bilan bo‘lgan Bog‘i Dilkushodagi qabul marosimidi. Unda yozidiki, avvaligi Kastilya qirolining maktubini taqdim etishlarini so‘rashadi, shundan keyin amir Temur oldiga boshlab borishadi. Amir Temurni tashqi ko‘rinishini quyidagicha yozadi:” Podshohning egnida gulsiz shoyi yaktak, boshida uzun telpak, telpakning yuqorisida qizil, yoqt, javohir va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan”[7:156]. Klavixio Amir Temurning ancha keksayib qolganligini, elchilar bilan iliq so‘rashib, Ispaniyalik elchilarni yuksak martabali o‘rinlardan biriga o‘tkazganligini tasvirlaydi. Ma’lumki, o‘rta asr an’analariga muvofiq elchilarning qay tartibda qabul qilinishi, qaysi joyga o‘tkazilishi, kim tomonidan kutib olinishiyu, qabul davomida tortiladigan taomlar ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shunga muvofiq, Klavixio o‘zlariga nisbatan juda iliq munosabatni ko‘rganligini, sharqona mehmondorchilik qoidalariga ko‘ra, dasturxonadagi taomlar va ichimliklarni batafsil yozib qayd etgan.

Mazkur asar juda qimmatbaho tarixiy manba bo‘lib, bizga juda ko‘plab ma’lumotlarni beradi. Aynan o‘zga yurt vakili tomonidan yozilganligi esa yanada qiymatining oshishiga olib keldi. Chunki, o‘zga yurtlar aholisi nazarida qanday ko‘rinishi, ularning urf-odatlariga hamoxang yoki aksincha keskin farq qiluvchi tomonlarini o‘z nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda muhokama qilishadi. Bu esa qiziqish va qiymatini yanada oshishiga olib keladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, hech bir davlat tashqi aloqalarsiz uzoqqa bora olmaydi. Xalqaro maydonda kuchlarning to‘qnashuvi ba’zan dushmanlikni keltirib chiqarsa, ba’zan do‘slik rishtalarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Shunday ekan, bunda ayniqsa elchilik aloqalari ularning o‘zaro munosabatlarining asosini tashkil etadi.

Qudrati butun jahonda tan olingan Amir Temur davlatiga ham turli davlatlardan elchilar tashrif buyurar ekan, ular o‘z yozma qaydlari bilan tariximizning bir bo‘lagini tasvirlab o‘tmishimizning ajralmas bo‘lagiga aylandi. Biz esa, tariximizni yanada chuqur o‘rganishimiz va tadqiq etishni istar ekanmiz Klavixio kabi yurtimizni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan elchilarning asarlarini chuqur o‘rganishimiz zarur hisblanadi. Buni anglagan yosh olimlarimiz tomonidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Balki yaqin kelajakda bizni bu borada kashfiyat va yangiliklar kutib turgandir. Shunday ekan biz ham ilm yo‘lida izlanishlarni jadallashtirgan holda tariximzni ocishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. 2-b.
 2. Eshov B. O‘zbekiston davlatchilik va boshqaruv tarixi. – Toshkent-2012. 145-b.
 3. Rui Gonsales de Klavixio. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. O‘zbekiston. NMIU.2010.
 4. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/temurning-anqaraga-yurishi/>
-

Nazarova S.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika inistituti,

O‘zbekiston, Chirchiq shahri

JAHON TARIXIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATINING TUTGAN O‘RNI

Mavzuning dolzarblii. Milliy istiqlol O‘zbek xalqining asriy orzusi armoni edi. O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi eng ulkan g‘alaba, uning qadriga yetish, mustaxkamlash, avaylab saqlab qolish muxim vazifa. Yurtboshimizning “Tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvofaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbanlari, quvonch va istiroblari bilan xolis va xaqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix